

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SHERMATOVA DILFUZA YAKUBJANOVNA

**OLIV TA'LIM TEXNIKA YO'NALISHLARIDA O'ZBEK TILINI
O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan- 2024

UDK: 378.091.3:811.512.133

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Shermatova Dilfuza Yakubjanovna

Oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida o'zbek tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari 3

Shermatova Dilfuza Yakubjanovna

Современный технологии преподавания узбекского языка на технических направлениях высшего образования 21

Shermatova Dilfuza Yakubjanovna

Teaching the uzbek language in technical areas of higher education modern technologies 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 46

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Ped.76.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

SHERMATOVA DILFUZA YAKUBJANOVNA

**OLIY TA'LIM TEXNIKA YO'NALISHLARIDA O'ZBEK TILINI
O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI**

13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o'zbek tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan- 2024

Falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2021.1.Phd/Ped2435 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namdu.uz) hamda “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sobirova Mahbuba Yusupdjanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Niyozmetova Roza Xasanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Uluxujayev Narzulloxon Ziyoviddinovich
pedagogika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:


Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi Phd.03/04.06.2020.Ped.76.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil “4” dekabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzill: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01, Faks: 228-85-02. e-mail: info@namdu.uz)


Dissertatsiya bilan Namangan davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (16.06 -raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 160107, Boburshoh ko‘chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 228-85-01.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “23” XI kuni tarqatildi.
(2024-yil “23” XI dagi 2 raqamli reyestr bayonnomasi).




T. Fayzullayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, p.f.d., professor


Sh.K. Xujamberdiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, p.f.d. (DSc), professor


S.X. Abdullayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon pedagogikasida har bir millatning ona tilini fikr ifodalash va nutqiy muloqot vositasi sifatida milliy-tarbiyaviy asoslarda chuqur o'rgatishning sodda, qulay va samarali usullar orqali tashkil etish metodlarini yaratish, ommalashtirish hamda tadqiq etish yo'llarining zamonaviy shakldagi talqinlarini ko'rsatib berish ta'limning muhim va zarur vazifalaridan biriga aylanmoqda. Oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida o'zbek tili o'qitilishining asosiy maqsadi talabalardan kelajakda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda samarali ish tashkil etish, mahalliy sharoitlarda o'z kasbiy yo'nalishlarida madaniy nutq orqali hamkasblar, mijozlar hamkor ishlab chiqarish tashkilotlari bilan muloqot qilish, kasbiy faoliyat bilan bog'liq turli termin va izohlarni tez ilg'ash, mohiyatiga chuqurroq yetish, mantiqan bog'liq jarayonlarni og'zaki va yozma shaklda ifodalash malaka hamda ko'nikmalarini rivojlantirishdan iboratdir.

Dunyo lingvodidaktik ta'limida har qanday tilning mazmunan bir butun - yaxlit, aniq, tushunarli, ravon va sodda nutq malakalarini shakllantirish hamda uni ilmiy-amaliy jarayon asoslari vositasida rivojlantirishga katta e'tibor bilan qaralmoqda. Bu yo'nalishdagi til ilmi va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha yangi innovatsion texnologiyalar, ilmiy asosli nazariyalar, g'oya va qarashlar, amaliy ish natijalari, izlanish hamda tadqiqotlar o'z samarasini bermoqda. Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida milliy va asosiy etnik belgi bo'lgan o'zbek tilida nutqiy kompetensiya va til ko'nikmalarini tadrijiy taraqqiyotini tashxis va tahlillash asoslari orqali o'rganish hamda o'rgatish zamonaviy pedagogikadagi alohida omil ekanligi tan olinmoqda, uning ilmiy jihatlari isbotlanmoqda.

O'zbekistonda o'zbek tilini milliy va lingvomadaniy tamoyillar mujassam bo'lgan tadqiqot metodlari asosida o'qitilishini tashkil etish, o'rganish, ular bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish muhim va o'z yechimini kutayotgan muammo sifatida qaralmoqda. Milliy va davlat tili bo'lgan o'zbek tili ta'limiga doir aniq va maqsadli faoliyat yo'lga qo'yilmoqda. Ta'kidlanganidek, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"¹. Shunday ekan, til o'qitishni, nutqiy ko'nikma jarayonlarini yaxlit holda tadqiq etish, o'rganish va o'rgatish usullari, milliy-etnik nutqiy faoliyatning barcha turlarini kompleks rivojlantirish, ularning lingvodidaktik asoslari ustida tadqiqotlar olib borish esa bugungi kunda dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda O'RQ-167-I-son "O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi

¹ Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 124 б.

O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, shuningdek, davlat dasturi loyihalarida “Ta’lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish” zarurligi alohida ta’kidlanganligi hamda mazkur mavzuga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Milliy til o‘qitish texnologiyalari, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida ta’lim jarayonini tashkil etilishi, pedagogik va metodik jihatlar, dars jarayonlarida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda bilim oluvchilar kompetensiyalarini shakllantirish, rivojlantirish masalalari o‘zbek pedagogikasida U.Begimqulov, R.Ishmuhamedov, N.Azizxo‘jayeva, G.Ibragimova, M.Tojiyev, N.Turdiyev, U.Mingboyev, O.Qurbonova, Sh.Yusupova, ona tilini o‘qitish orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va ilmiy-nazariy ma’lumotlarni amaliyotga tatbiq etish usullari, o‘quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirish, ona tili mashg‘ulotlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish A.G‘ulomov, Y.G‘ulomov, N.Mahmudov, N.Uluqov, B.To‘xliyev, T.Ziyadova, ona tili ta’limi mazmunini yangilash, nutq va tafakkur o‘stirish masalalarida uzluksizlikni ta’minlash, integratsiyali ta’limni amalga oshirish, o‘quv materiallarining metodik ta’minotini takomillashtirish, bilim oluvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish bo‘yicha X.Muhiddinova, M.Mirmaxsudova, G‘.Hamroyev, A.Hamroyev, X.Qurbanova, M.Saidov, M.Sobirovalar tadqiqot olib borgan, biroq oliy ta’lim talabalarining o‘zbek tili ko‘nikmalari va nutqiy kompetensiyasini oshirish hamda rivojlantirish texnologiyalari masalalari batafsil monografik tarzda tadqiq etilmagan.

Shuningdek, rus pedagogikasida A.Yefremova, G.Sayaxova, Ye.Rujeva, A.Zimnyaya va I.Baydenkolar talabalarining ona(rus) tili darslarida grammatik tushunchalarni tushunish va o‘zlashtirish xususiyatlarini, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, kasbiy pedagogik tayyorgarlik samaradorligini oshirish texnologiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bordilar.

Xorijda Sh.Balli, K.Byuler, A.V.Xutorskoy, E.Benvenist, A.Blum, G.Spenser kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek tili masalalarining antropotsentrik tadqiqi" nomli asosiy ilmiy tadqiqot mavzulari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida o'zbek tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim texnika yo'nalishlari talabalarining o'zbek tili mashg'ulotlarida lisoniy tafakkuri, til va nutq ko'nikma hamda malakalari rivojlantirishini zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida aniqlashtirish;

texnika yo'nalishlari talabalarining kasbiy sohalariga taalluqli bog'lanishli matnlar yaratishda o'zbek tilining o'ziga xos funksional-semantik, grammatik, strukturaviy-sintaktik jihatlarini o'rgatish orqali og'zaki va yozma uslubda mantiqan fikr ifodalashga doir o'qitishning didaktik, metodik imkoniyatlarini o'rganish;

fanlararo integratsiyaning mazmuni ta'minlangan holda texnikaviy sohaga oid terminlar hamda o'zbek tili so'z va terminlari orfoepik xususiyatlarini turli zamonaviy texnologiyalar orqali ilmiy-uslubiy tahlil qilish, takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

oliy ta'lim texnika yo'nalishlari talabalarini til va nutqiy komillikka erishuvi masalalarida kasbga oid atama va terminlarning mazmun-mohiyatini anglagan holda qo'llashdagi muammolarini o'rganish, muammoning yechimlarini zamonaviy texnologiyalar orqali ilmiy-uslubiy tahlil qilish, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida o'zbek tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqot predmetini texnika oliy o'quv yurtlari talabalarining o'zbek tili darslarida ("O'zbek tilining sohada qo'llanishi" fani misolida) til ko'nikmalari hamda nutqiy jarayonlardagi fikrlarini ifoda etish malaka darajasini rivojlantirishning mazmuni, shakllari, metodi va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim muassasalaridagi ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, muammoga oid ilmiy adabiyotlar, maqsadli pedagogik kuzatish usuli, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat, test); pedagogik tajriba-sinov, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim texnika yo'nalishlari talabalarida o'zbek tili mashg'ulotlarida til va nutq ko'nikma hamda malakalari rivojlantirilishining antropotsentrik (shaxsga yo'naltirilgan) nutqiy faoliyatning barcha turlari (kognitiv-kommunikativ, tizimli kompetensiyaviy, kreativ muloqotli)ni kompleks – yaxlit tarzda o'stirish yo'llari zamonaviy yondashuvlar asosida aniqlashtirilgan;

texnika yo'nalishlari talabalarining kasbiy sohalariga oid mavzularda fikrlarini muayyan ketma-ketlikda hamda mantiq va grammatika qoidalari asosida

o‘zaro bog‘langan matn tuza olish, ularni og‘zaki va yozma shaklda bayon etish malakalarini rivojlantirishga doir zamonaviy texnologiyalarning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan;

fanlararo integratsiyaning didaktik ta‘minoti mazmuni ta‘minlangan holda texnikaviy sohaga oid terminlar talaffuzi hamda milliy so‘z va terminlarning orfoepik xususiyatlarini turli birlashuvchi (integratsion) an‘anaviy va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg‘unligida takomillashtirilgan;

o‘zbek tili o‘qitishdagi o‘ziga xos xususiyatlarning nazariy-metodologik asoslari orqali talabalar bilan texnik atama va terminlar ustida ishlash usul va mexanizmlari mantiq hamda grammatik qoidalarga muvofiq savodxonlik bilan tahlil qila olish malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirishga dor tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

texnika yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlari talabalarida o‘zbek tili (“O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fani misolida) mashg‘ulotlarida til va nutq ko‘nikma hamda malakalari rivojlantirilishining imkoniyatlarini shakllantirish va rivojlantirishni aniqlash va baholash mezonlari ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilgan;

texnika yo‘nalishlarda tahsil olayotgan oliy o‘quv yurti talabalarining o‘zbek tilida og‘zaki va yozma matn tuzishda yo‘l qo‘yadigan xatoliklari aniqlanib, ularning vujudga kelish sabablari o‘rganilgan va bartaraf etish usullari ko‘rsatib berilgan;

texnika yo‘nalishlarda tahsil olayotgan oliy o‘quv yurti talabalarining o‘zbek tili darslarida fikrlarni muayyan ketma-ketlikda, yaxlit, sodda, ravon va tushunarli bayon etish malakalarini rivojlantirishning lingvomadaniy shakllari takomillashtirilgan;

oliy ta‘lim texnika yo‘nalishlari talabalarida o‘zbek tili ta‘limi jarayonida til boyligini oshirish va nutq kompetensiyasini rivojlantirish, atama va terminlarni to‘g‘ri qo‘llashga qaratilgan mashqlar tizimi shakllantirilib taqdim etilgan va ulardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar dissertant tomonidan chop etilgan maqola va uslubiy ko‘rsatmada aks ettirilgan.

oliy ta‘limda o‘zbek tili o‘qitishni samarali tashkil etishga doir “Oliy ta‘lim texnika yo‘nalishlarida o‘zbek tilini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari” nomli elektron qo‘llanma ishlab chiqilgan va bu dasturiy mahsulot uchun O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan № DGU13417-raqamli mualliflik guvohnomasi, shuningdek, texnika sohasi mutaxassislarining o‘zbek tilida nutqiy faoliyatiga doir “Texnika ta‘limida o‘zbek tili nutq madaniyati ko‘nikmalarini rivojlantirish” nomli elektron qo‘llanma ishlab chiqilgan va bu dasturiy mahsulot uchun O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligidan № DGU26220-raqamli guvohnoma olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, o‘rganilayotgan muammoga metodologik va ilmiy-pedagogik yondashuvlar asosida belgilangan vazifalar mohiyatiga mutanosib izlanish metodlarining tanlanganligi, texnika oliy o‘quv yurtlari talabalarida o‘zbek tili ta‘limi jarayonida til boyligini oshirish va nutq malakalarini o‘stirishga doir milliy va xalqaro

tadqiqotlarning natijalari, shuningdek, tahlil va tadqiqot tavsifining miqdor va sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajriba-sinov ishlarining haqqoniyligi, olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, qo'llanilgan yondashuv usullarining ilmiy-metodik, lisoniy-kommunikativ faoliyatni tashkil etishga doir tajribalarga asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli davlat organlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kasbiy nutq tushunchalarining mazmun-mohiyati o'zbek tilida aniq, sodda, tushunarli va ravon yoritilganligi, bir butun yaxlit nutqning o'zbek tilidagi funksional-vazifaviy mazmun ifodalashning o'ziga xos semantik, morfologik, strukturaviy-sintaktik xususiyatlarini izohlanganligi, texnika yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlari talabalari nutqini o'stirish ketma-ketligi belgilanganligi, muammoga doir turli yondashuvlar va talqinlarning tahlil qilinganligi, talabalarda o'z fikrlarini o'zbek tilining muayyan shaklida, mantiqan va grammatik jihatdan to'laqonli hamda aniq struktura – tuzilishida bayon etish muhiti, ko'nikmasini yaratishning ilmiy jihatlari yoritilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida o'zbek tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar hamda taqdim etilgan namunaviy mashqlar tizimidan ta'lim jarayonida, o'quv dasturlarini takomillashtirish, darsliklar va o'quv qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy etilishi. Oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida o'zbek tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari tadqiqi bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

oliy ta'lim texnika yo'nalishi talabalarida o'zbek tili mashg'ulotlarida til va nutq ko'nikma hamda malakalari rivojlantirilishining antropotsentrik nutqiy faoliyatning barcha turlarini kompleks – yaxlit tarzda o'stirish yo'llari zamonaviy yondashuvlar asosida aniqlashtirishga doir taklif va tavsiyalari 60730700 - Qurilish materiallari va buyumlari konstruksiyalarini ishlab chiqarish ta'lim yo'nalishi talabalari uchun tayyorlangan “O'zbek tilining sohada qo'llanishi” nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'i, 537210 - raqamli guvohnoma). Natijada texnika yo'nalishlari talabalarining o'zbek tili amaliy mashg'ulotlarida til va nutq ko'nikmalari hamda malakalarining rivojlantirilishiga xizmat qilgan.

texnika yo'nalishlari talabalarining kasbiy sohalariga oid mavzularda fikrlarini muayyan ketma-ketlikda hamda mantiq va grammatika qoidalari asosida o'zaro bog'langan matn tuza olish, ularni og'zaki va yozma shaklda bayon etish malakalarini rivojlantirishga doir zamonaviy texnologiyalarning ilmiy-metodik asoslari ishlab chiqilgan. Natijalardan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida bajarilgan FZ-2016-0908165532-raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi

fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanildi (O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2023-yil 14-iyundagi 281-son ma’lumotnomasi). Natijada yangi alifbo va imlo qoidalariga muvofiq ona tilini rivojlantirish metodikasi milliy-ma’naviy omillarning ta’sirida yuzaga keladigan jihatlarning nazariy asoslari ilmiy jihatdan kengaytirilgan va to‘ldirilgan;

fanlararo integratsiyaning didaktik ta’minoti mazmuni ta’minlangan holda texnikaviy sohaga oid terminlar talaffuzi hamda milliy so‘z va terminlarning orfoepik xususiyatlarini turli birlashuvchi (integratsion) zamonaviy va an’anaviy pedagogik texnologiyalar uyg‘unligida takomillashtirishga doir tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Mahalla” teleradiokanali muharririyati tomonidan tayyorlangan “Minbar”, “Reportyor” nomli ko‘rsatuvlar ssenariysida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Mahalla” teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 13- iyundagi № 01-15-670-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ushbu ko‘rsatuvlar mazmunan boyib, ijodiy jamoa va teletomoshabinlarning o‘zaro muloqot jarayonlarida nazariy va amaliy ko‘nikmalarining shakllanishi hamda rivojlanishiga asos bo‘lgan;

o‘zbek tili o‘qitishdagi o‘ziga xos xususiyatlarining nazariy-metodologik asoslari orqali talabalar bilan texnik atama va terminlar ustida ishlash usul va mexanizmlari mantiq hamda grammatik qoidalarga muvofiq savodxonlik bilan tahlil qila olish malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalaridan O‘zbekiston Milliy universitetida 2018-2020 yillarda bajarilgan PZ-2017093020-raqamli “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va prognozlashtirishning uslubiy asoslarini ishlab chiqish va kompleks dasturini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi O‘zbekiston Milliy universitetining 2023 yil 27 iyuldagi 04/11-4512-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu loyihani amalga oshirish jarayonlarida texnika atama va terminlaridan mantiq hamda grammatik qoidalarga muvofiq to‘g‘ri, samarali foydalanish malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tajriba sinov natijalarini e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, 2 ta elektron dastur va O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, 146 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqot ishining maqsadi,

vazifasi, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlarga mosligi va tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e‘lon qilinganligi, tadqiqot ishining tuzilishi haqida ma‘lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta‘lim texnika yo‘nalishlarida o‘zbek tilini o‘qitishga yo‘naltirilgan zamonaviy yondashuvlar”** deb nomlangan birinchi bobida oliy ta‘lim texnika yo‘nalishlari talabalarining til va nutqiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy asoslari o‘rganilgan, texnika yo‘nalish talabalarining o‘zbek tilini bilishi va nutqiy muloqot ko‘nikmalarining darajasini oshirish masalalari, shuningdek, o‘zbek tili o‘quv materiallari mazmuni hamda talabalar til va muloqot kompetensiyasini rivojlantirish talablari haqida fikr yuritilgan.

Muayyan bir mazmuni, har qancha xohish va harakat bo‘lganda ham, barcha tillarda aynan bir xil, tamoman adekvat tarzda ifodalashning aslo imkoni yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas, chunki har bir xalqning boshqalarga o‘xshamaydigan tafakkur tarzi, mentaliteti, ruhiyati mavjudki, har bir tilda ularni aks ettirishga, nafaqat aks ettirishga, balki ularni inkishof qilishga ixtisoslashgan xilma-xil va farqli birliklar, imkoniyatlar bisyor. Taassuf bilan aytish lozimki, tilni faqat “kishilar o‘rtasidagi eng muhim aloqa vositasi” deb hisoblash ona tili va, umuman, til ta‘limining sifati va samaradorligi uchun ham foyda keltirmadi².

Bugungi kunda texnika yo‘nalishlari talabalarining o‘zbek tili ta‘limiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbek tilini sohaga yo‘naltirib, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fani tanlov asosida o‘qitilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, talabalarning o‘zbek tili darslarida til va nutq kompetentlik darajasini oshirishga doir amaliy darslarga alohida e‘tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Biz oliy ta‘lim texnika yo‘nalishlari talabalarining o‘zbek tilini bilishi va nutqiy muloqot ko‘nikmalari darajasini aniqlash maqsadida Namangan muhandislik-qurilish instituti muhandislik ishi (muhandislik kommunikatsiyalari) yo‘nalishi 1-kurslardagi “O‘zbek tilining sohada qo‘llanishi” fani amaliy mashg‘ulotida “O‘zbek tilining leksik qatlamlari” nomli 3-mavzu avvalida 25 nafar talabani so‘z ifodasi ostiga birlashadigan ma‘no va tushunchalarni tahlil qilishga va o‘z nutqlari orqali ularni og‘zaki aytib berishga undadik.

Talabalarga taqdim etilgan so‘zlar: 1) hunarmand; 2) sadoqatli; 3) poydevor; 4) mahsulot; 5) ustun; 6) loyiha; 7) handasa; 8) chechak; 9) sinch; 10) pishgan.

Ushbu zamonaviy yondashuv asosida talabalarning til boyligi va nutqiy ko‘nikmasini aniqlash usuli natijalari dissertatsiyada jadvallar orqali ko‘rsatilgan. Jadvalda texnika yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalarning og‘zaki nutqiy muloqot jarayonida o‘zbek tilidagi so‘zlarni ifodalashga qaratilgan til va nutqiy kompetensiyasining holati statistik ko‘rinishi aks ettirilgan va talabalarning yozma savodxonlik ko‘nikmalari darajasini aniqlashga qaratilgan tahlil natijalarini ko‘rishimiz mumkin.

² Махмудов Н. Тил – бемисл ва мухташам синоат / Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 2014-йил, 10-сон. – Б. 4-8.

1-jadval.


Oliy ta’lim texnika yo‘nalishlarida o‘zbek tilini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari asosida talabalarining o‘zbek tilidagi so‘zlarni ifodalashga qaratilgan til va nutqiy kompetensiyasining holatini aniqlash

So‘zlar		hunarmand	sadoqatli	poydevor	mahsulot	ustun	loyiha	handasa	chechak	sinch	pishgan
1	5 ta gap	+	+	+	-	+	-	-	-	-	+
2	3 ta gap	+	+	+	-	-	-	-	-	-	-
3	5 ta gap	+	+	+	-	+	-	-	-	-	+
4	7 ta gap	+	+	+	+	+	+	-	-	-	+
5	2 ta gap	-	-	-	+	+	-	-	-	-	-
6	5 ta gap	+	+	+	+	+	-	-	-	-	-
7	5 ta gap	+	+	+	+	+	-	-	-	-	-
8	5 tagap	+	+	+	+	+	-	-	-	-	-
9	5 ta gap	+	+	+	+	+	-	-	-	-	-
10	7 ta gap	+	+	+	+	+	+	-	-	-	+
11	3 ta gap	+	+	+	-	-	-	-	-	-	-
12	3 tagap	+	+	-	+	-	-	-	-	-	+
13	5 ta gap	+	+	+	-	+	-	-	+	-	-
14	2 ta gap	-	-	-	+	+	-	-	-	-	-
15	5 ta gap	+	+	+	-	+	-	-	-	-	+
16	2 ta gap	-	-	-	-	+	-	-	-	-	+
17	2 ta gap	+	+	-	-	-	-	-	-	-	-
18	7 ta gap	+	+	+	+	+	+	-	-	-	+
19	5 ta gap	+	+	+	-	+	-	-	-	-	+
20	5 ta gap	+	+	+	-	+	-	-	-	-	+
21	5 ta gap	+	+	+	-	+	-	-	+	-	-
22	3 ta gap	+	+	-	-	+	-	-	-	-	-
23	5 ta gap	+	+	+	-	+	-	-	-	-	+
24	3 ta gap	+	-	-	-	+	-	-	-	-	+
25	5 ta gap	+	+	+	-	+	-	-	-	-	+

Tahlildan maqsad shuki, mazkur 1) hunarmand; 2) sadoqatli; 3) poydevor; 4) mahsulot; 5) ustun; 6) loyiha; 7) handasa, 8) chechak; 9) sinch, 10) pishgan so‘zlari anglatgan ma’nolar asosida ularga bog‘liq holda sintaktik butunlik – fikr ifodasi bo‘lgan, grammatik shakllangan gaplar tuzish topshirig‘i berildi. 25 nafar talaba uchun topshiriqni bajarishga 20 daqiqa vaqt berildi.

Talabalar yozma savodxonlik darajasini aniqlashning zamonaviy usuli natijalari ham dissertatsiyada jadval asosida aks ettirilgan.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’lim texnika yo‘nalishlari talabalarining til va nutq kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida texnika yo‘nalishi talabalarida til va nutqiy kompetensiyaning rivojlantirish metodikasi, o‘zbek tilini o‘qitishdagi zamonaviy yondashuvlar hamda o‘zbek tili amaliy mashg‘ulotlarida texnika yo‘nalishi talabalarida til va muloqot madaniyatini rivojlantirishning zamonaviy texnologiyalari haqida fikr yuritilgan.



1-rasm. Oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida o'zbek tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash modeli

Respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalari texnika yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning nutqiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan mavzudagi mazkur dissertatsion tadqiqot ishining eng muhim ahamiyatli va dolzarbligini ko'rsatib turuvchi jihati ham talabalarga nutqiy muloqot masalalari bo'yicha mashg'ulotlarga zamonaviy yondashuvlar va qarashlarning o'zbek pedagogikasida zaruriy jarayon ekanligini ko'rsatib berishimizdir.


Mamlakatimiz rahbari to'g'ri ta'kidlaganidek, "Tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shavfqat, qadr-qimmat degan bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo. Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o'ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadigan so'zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ongu shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning ommaviy ifodasidir"³.

O'zbek tilini o'qitishdagi zamonaviy yondashuvlarda, til va nutq kompetentligini to'la shakllantirish uchun quyidagilarga qat'iy amal qilinsagina ko'zlangan maqsadga tezroq erishiladi:

1. Asl turkiy (o'zbekcha) so'zlarni ma'nosini anglatish (bobo, momo, chopon, barcha milliy iboralar kabi);

2. Gap yoki matnda so'zlarni o'rinsiz takror qo'llamaslik. (Bog'bon ko'chatlarga suv quydi. Bu (suv quygani) ularning yaxshi o'sishiga sabab bo'ldi kabi). Takror keladigan so'zlar o'rniga olmoshlarni qo'llash yuzasidan tushunchalar berish mumkin.

3. So'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini yaxshi tushuntirish va o'rgatishni bilmaslik, talabalarni ko'chma ma'noni yaxshi tushunmasligi muloqot jarayonida noqulay ahvolga solib qo'yadi. Masalan, inson ko'zi, aql ko'zi, buloqning ko'zi, derazaning ko'zi, ishning ko'zi, uzukning ko'zi, elakning ko'zi kabi.



2-rasm. Oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida o'zbek tilini o'qitishdagi zamonaviy yondashuv talablari

³ Мирзиёев Ш. Ёшлар маънавиятини юксалтириш, уларнинг бўш вақтини мазмунли ташкил этиш бўйича бешта муҳим ташаббус. Elektron manba: <https://www.gazeta.uz/oz/2019/04/03/5-tashabbus>

Bugungi kunda o'zbek tili ta'limida jahon ta'limi amaliyotida qo'llanilayotgan: "O'yinli texnologiyalar", "Muammoli o'qitish texnologiyalari", "Kreativ o'qitish texnologiyalari", "Kompyuterli o'qitish texnologiyalari", "Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari", "To'liq o'zlashtirish texnologiyalari", shuningdek, "Keys-stadi o'qitish texnologiyasi", "Kvest texnologiyasi", "Blum" taksonomiyasi, "Imitatsiya" va "4K" metodlaridan foydalanish samarali natijalarni bermoqda.

Ushbu zamonaviy texnologiyalar bo'lg'usi soha mutaxassislarining og'zaki va yozma tildagi nutqiy-kompetensiyaviy ko'nikma hamda malakalarini rivojlantiradi. Til vositasida talaba boshqa fanlarni ham o'rganadi, fikrlarini bayon etadi.

Tadqiqotimiz davomida qurilish sohasi talabalariga dars samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalardan foydalandik. Jumladan, "Qurilish materiallari" mavzusini o'rganishda zamonaviy texnologiyalardan biri bo'lgan "Blum" taksonomiyasini quyidagi tarzda qo'lladik:

1. Bilish. Taksonomiyaning ushbu darajasida talabalarining sohaga doir bilimlarini eslab qolish-qolmasliklari talabaning til tafakkuri, lisoniy boyligini aniqlashtirildi. So'zlar talaba ongida lug'at tarzda shakllandi. Masalan, uy-joy, shifoxona, sinf xonalari, ishlab chiqarish sexlari, to'g'onlar, ko'prik, dudburon, suv va don mahsulotlari saqlanadigan katta-katta idishlar va ularning qurilishidagi mahsulotlar: *sement, tosh, granit, og'ir beton, sopol g'isht, po'lat, yog'och taxta, shisha plastika* kabilar.



3-rasm. Yog'och taxta, po'lat, granit.

2. Tushunish. Taksonomiyasining ushbu bosqichida talaba tushunish darajasiga ega bo'ldi va qurilish materiallari nomlari, chizmalar, jadvallarni yaratishdagi faol so'zlarni aniqladi, og'zaki va yozma bayon eta oldi. Bu tafakkur darajasiga muvofiq talabalar so'zlarni tushuntirish, tarjima qilish, o'z va ko'chma ma'nosida ishlatishga doir ko'nikmalariga ega bo'ldilar. Tushunilgan so'zlar yordamida gap tuzish qobiliyati mustahkamlandi. *Zamonaviy va ko'rkam binolar qurilmoqda.*

3. Qo'llash. Taksonomiyaning ushbu bosqichida amaliy savollar talabalardan olgan bilimlari, ko'nikmalarini qo'llash yoki ulardan foydalanishni taqozo etdi. Qo'llash darajasida talaba kasbiy atama va terminlardan nutqiy jarayonda faol foydalandi. *Tog' jinsi, xomashyo, texnologiya, tuproq, qorishma nima?*

4. Tahlil qilish. Taksonomiyaning tahlil darajasida talabalar o'zlarining eng yaxshi fikrlariga asoslanib, atama va terminlarni qo'llash orqali o'zbek tilida aniq, sodda va tushunarli bog'lanishli matn yaratdilar, sohaga oid ijobiy-salbiy vaziyatlarni tahlil qildilar.

Masalan, *Surxondaryo, Buxoro, Samarqand va Toshkent* viloyatlari tog'larida juda ko'plab *marmar konlari* bor.

5. Baholash. Ushbu baholash bosqichida, talabalar qurilish materiallariga doir yangi-yangi ma'lumotlarni o'rgandilar, yangi dalillar to'pladilar. Ularning shu

sohadagi bilim, ko'nikma va malakalari mustahkamlandi, til va nutq kompetensiyalari rivojlantirilishiga muvaffaq bo'lindi. Ma'lumotlar solishtirish bilan baholandi. Masalan, "Ohangaronsement" yoki "Bekobodsement" kabilar.

6. Yaratish bosqichi. "Blum" taksonomiyasining eng yuqori darajasidir. Bu bosqichda talabanning og'zaki va yozma matn tuzish, ifodalash texnika atama va terminlarining mazmun-mohiyati ustida ishlash, mantiq hamda grammatik qoidalarga muvofiq savodxonlik bilan tahlil qila olish malaka va ko'nikmalari rivojlantirildi. O'zbek tili ta'limi samarasi sifatida sohaga doir ijodkorlik qobiliyatlarini og'zaki va yozma shaklda turli loyihalar yaratishga kreativ yondashish bilan namoyish etdilar.

"Imitatsiya"-lotincha so'z bo'lib, "imitatio", ya'ni taqlid qilish, o'xshatish degan ma'nolarni bildiradi. Ushbu usul orqali vaziyatni baholash, sohaga doir dolzarb muammoni qo'yishda aniqlik, qisqalik, tushunarlik e'tiborga olindi. Ushbu metod talabalarning muloqot jarayonlarida o'zbek tili fani va mutaxassislik fanlari integratsiyasini mustahkamlandi. Sohaga oid texnikaviy termin va milliy so'zlar talaffuzi, o'zbek tilida nutq sofligini ta'minlash masalasi bosh g'oya sifatida e'tiborga olindi. Zamonaviy milliy mutaxassislarning ilg'or yutuqlari ommalashtirildi. Shuningdek, oliy ta'lim texnika yo'nalishlari talabalarining til va nutq kompetensiyasi o'zbek tili ta'limining zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitilishi orqali samarali natijalarini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning "Oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida o'zbek tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalar asosidagi samarador tajriba-sinov ishlari" deb nomlangan uchinchi bobida oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida o'zbek tilini zamonaviy texnologiyalar asosida o'qitishning tajriba-sinov ishlari mazmuni haqidagi fikrlar, tahlillar asosidagi to'xtamlar hamda amaliy-pedagogik tajriba-sinov natijalari tahlili bayon qilingan.

Tajriba-sinov ishlari, ta'kidlanganidek, Namangan muhandislik-qurilish instituti, Andijon mashinasozlik instituti, Farg'ona politexnika institutlarida olib borildi. Ushbu tajriba-sinov ishlarida 309 nafar respondentlar ishtirok etdi. Tajriba-sinov ishlari natijasida olingan miqdor ko'rsatkichlar 2-,3-,4-,5-jadvallarda keltirilgan.

2-jadval

Oliy ta'lim texnika yo'nalishlarida o'zbek tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari asosida talabalarining o'zbek tilidan bilimlarini rivojlantirish bo'yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi ma'lumotlarning solishtirma jadvali

Tajriba guruhi	Tajriba o'tkazilgan OTM	Yuqori	O'rtacha	Past	Jami
	Namangan muhandislik-qurilish instituti	47	44	15	106
Andijon mashinasozlik instituti	45	44	12	101	
Farg'ona politexnika instituti	47	42	13	102	
Jami	139	130	40	309	
Nazorat guruhi	Tajriba o'tkazilgan OTM nomi	Yuqori	O'rtacha	Past	Jami
	Namangan muhandislik-qurilish instituti	27	38	36	101
Andijon mashinasozlik instituti	28	35	35	98	
Farg'ona politexnika instituti	26	39	37	102	
Jami	81	112	108	301	

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarda nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan bilim, ko‘nikma va malakalari samarali shakllanishida sezilarli o‘zgarishlar kuzatilgan.

3-jadval

Oliy ta‘lim texnika yo‘nalishlarida o‘zbek tilini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari asosida talabalarining o‘zbek tilidan bilimlarini rivojlantirish bo‘yicha tajribadan avvalgi (TA) va tajribadan keyingi (TK) ma‘lumotlarni umumiy jadvali

№	Tadqiqot obyektlari	Tajriba guruhlarini (309 nafar)						Nazorat guruhlarini (301 nafar)					
		Yuqori		O‘rta		Past		Yuqori		O‘rta		Past	
		TA	TK	TA	TK	TA	TK	TA	TK	TA	TK	TA	TK
